Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

"XOJAND QAL'ASI" ASARI MATNIDA AKSD ETGAN AYRIM TOPONIMLARNING LISONIY VA TARIXIY-ETIMOLOGIK TADQIQI

Sharopova Ferangiz Nurmatovna

Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20551169

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Xojand qal'asi" asari matnida qollangan tarixiy- geografik nomlar, ya'ni toponimlarning lisoniy tabiati, struktural-semantik xususiyatlari hamda tarixiy-etimologik asoslari tadqiq etilgan. Asar onomastik tizimidagi Bag'dod, Buxoro, Samarqand, Andijon, Farg'ona kabi oykonomlar hamda Zarafshon, Amudaryo kabi gidronimlar qiyosiy-tarixiy, komponent tahlil va semantik metodlar yordamida atroflicha yoritilgan. Shuningdek, xalqona etimologiya va ilmiy etimologiya o'rtasidagi farqlar manbalar asosida ko'rsatib olingan.

Kalit so'zlar: onomastika, toponimika, oykonom, gidronim, etimologiya, "Xojand qal'asi", lisoniy qatlam, sug'd tili, etnotoponim.

Kirish (introduction)

Zamonaviy tilshunoslikning eng jadal rivojlanayotgan va ijtimoiy-tarixiy fanlar bilan chambarchas bog£liq bo£lgan yo£nalishlaridan biri onomastikadir. Onomastik birliklar, xususan, geografik obyektlarning nomlarini o^ganuvchi toponimlar shunchaki xaritadagi shartli belgilar emas, balki muayyan xalqning uzoq o^mishi, migratsion jarayonlari, diniy-madaniy qarashlari va lisoniy tafakkurini o£zida muhrlagan o£ziga xos arxeologik qatlamdir. Badiiy hamda tarixiy asarlar matnida qo^langan joy nomlarini lingvistik jihatdan tahlil qilish, o£sha davr tili xususiyatlarini, lahjalararo munosabatlarni hamda leksik-semantik evolyutsiyani ochib berishda muhim manba bo£lib xizmat qiladi.

Yozuvchi asarlarida, xususan, "Xojand qal'asi" asarida onomastik birliklarning bir qator shakllari mavjud. Bular sirasiga toponimlar, antroponimlar, gidronimlar va boshqalarni kiritish mumkin. Ushbu asar tilida qo^langan toponimik leksika o£zining tarixiy qadimiyligi va lingvistik rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ushbu ilmiy maqolada asar matnida faol qo^langan va Movarounnahr hamda unga tutash hududlarning qadim o£tmishini aks ettirgan ayrim toponimlarni leksik-etimologik va semantik nuqtayi nazardan kompleks tadqiq etish maqsad qilingan. Bu esa asarning badiiy-tarixiy qiymatini oshirish bilan bir qatorda, milliy toponimiyamizning fundamental masalalarini oydinlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida badiiy-tarixiy matndagi toponimik birliklami aniqlash va tizimlashtirish maqsadida, dastlab asardan joy nomlari to£liq xatlovdan o^kazildi. To£plangan lisoniy materialni tahlil qilish va ularning obyektiv ilmiy asoslarini belgilash uchun qiyosiy-tarixiy metod, komponent tahlil metodi hamda leksik-semantik tahlil usullaridan foydalanildi. Qiyosiy-tarixiy metod yordamida joy nomlarining eng qadimgi xitoy solnomalari, sug£d tilidagi yozma yodgorliklar va ilk o^ta asr arab-fors manbalaridagi shakllari qiyoslanib, ularning fonetik-morfologik o£zgarishlari aniqlandi. Komponent tahlil metodi orqali murakkab tarkibli toponimlar tarkibiy qismlarga (topoleksema va formantlarga) ajratilib, ularning har birining lisoniy vazifasi baholandi. Manbaviy asos sifatida Abu Bakr Narshaxiy, Mahmud Koshg£ariy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi tarixiy mualliflar hamda V.V.Bartold, A.Muhammadjonov, H.Hasanov, S.Qorayev kabi taniqli sharqshunos va toponimist olimlarning fundamental qarashlariga tayanildi.

Olib borilgan kompleks lingvistik tahlillar natijasida asar matnidagi toponimlar strukturaviy va semantik jihatdan bir qancha qatlamlarga ega ekanligi ko^indi. Birinchidan, hudud joy nomlarida diniy-mifologik va e'tiqodiy tasavvurlar tub qatlamni tashkil qilishi aniqlandi. Ikkinchisidan, o^ganilgan eng ko£hna oykonomlar negizida turkiy tildan tashqari eroniy va sug£diy (masalan, *kent/kat/kan* kabi shahar, qishloq ma'nosini beruvchi elementlar) substrat asoslar faol ekanligi isbotlandi. Uchinchidan, mintaqa onomastikasida etnik omil yetakchi o^in tutib, ma'lum hududlarning shakllanishi va nomlanishi bevosita qabila hamda urug£ nomlari, shuningdek, tarixiy migratsion oqimlar (ko^hma toponimlar) bilan uzviy bog£liq ekanligi dalillandi.

Bagʿdod toponimining leksik-etimologik tabiati

"Xo£jand qal'asi" asarida tilga olingan toponimlardan biri Bag£doddir. Bugungi kunda bu nom Farg£ona viloyati tarkibidagi shaharcha va tuman nomi hisoblanadi. Tuman hududi asosan tekislikdan iborat bo^ib, janubi-g£arbida toshloqli dasht yerlar mavjud. Bag£dod juda qadimiy nom bo^ib, yozma manbalarda ikki ming yildan buyon qayd qilib kelinadi. O£zbekiston joy nomlari tarkibida diniy e'tiqodlar bilan bog£liq toponimlar ko£plab topiladi. Ularning shakllanishiga ta'sir ko^satgan omillar ham turlicha. Bunday geografik nomlar qatoriga Bag£dod - "Alloh in'om etgan" nomini kiritish mumkin.

Shaharcha va tuman nomining etimologiyasi haqida bir qancha rivoyatlar mavjud bo^ib, shulardan eng keng tarqalgani: Bog£i Dod (Dodning bog£i) va But (sanam) tuhfasi degan qarashlardir. Rus sharqshunos olimi V.V.Bartold *Bag'* so£zini eroniy tillarda "xudo" degan ma'nosi borligini ta'kidlaydi. Olim o£zining "Eronning tarixiy- geografik tavsifi" nomli asarida Bog£iston degan joyni "Xudo maskani" deb ta'rif bergan. Taniqli toponimist olim H.Hasanov Bag£dod nomini quyidagicha izohlagan: *bag'/bog'* - "Alloh", *dod* - "tuhfa", ya'ni "Allohning tuhfasi". Demak, Toshkent viloyatidagi Bog£iston, Jizzax viloyatidagi Bog£don, Xorazm viloyatidagi Bog£ot kabi qadimiy nomlarni talqin qilishda *bag'* yoki *bog'* so£zining qadimiy ma'nosini ham inobatga olish zarur.

Mutaxassislarning fikricha, O£zbekiston toponimiyasi tarkibidagi diniy e'tiqodlar bilan bog£liq toponimlarning negizini tashkil qiluvchi so£zlar ancha qadim davrda mahalliy xalqlar tiliga o£zlashgan va ular bevosita arablarning Movarounnahrni ko£p asrlik istilosi yoki undan ham ilgarigi davrlar bilan bog£liq. Tuman ma'muriy markazi Bag£dod shaharchasi bo^ib (1962-yildan), u 1894-1962-yillarda Serovo deb atalgan. Bu nomni shaharchaga XIX asrning oxirida Rossiyadan ko^hirib keltirilgan ruslar berishgan bo^ib, u keyinchalik tarixiy oykonom sifatida yana o£zining qadimgi tarixiy nomini tiklagan.

Buxoro toponimining tarixiy-madaniy konnotatsiyalari

Buxoro - jahon madaniyatining eng qadimgi o^hoqlaridan biri bo^gan ko£hna shahardir. Akademik A.Muhammadjonovning asarlarida shahar toponimiyasi haqida ancha chuqur va batafsil ma'lumot berilgan. Arab tarixchilari keltirgan nomlarning bir toifasi uning mahalliy aholisi tomonidan, ikkinchi toifasi esa chetdan kelganlar tomonidan berilganligini qayd etadi. Shaharning mahalliy nomlari Numijkat, Bumiskat, Navmichkat, Buxoro tarzida atalgan. Jumladan, Navmichkat uch so£zdan iborat bo^ib, ma'nosi: *Nav* - forscha "yangi", *mich* - sug£diycha "qal'a, istehkom", *kat* - "qishloq, shahar" demakdir. Ya'ni, "Yangi qal'a/shahar" ma'nosini anglatadi.

Qadimgi Buxoro dastlab Zarafshon daryosining quyi oqimlaridan biri bo^gan Zarirud daryosi sohilida uchta qal'a: Farabdiz, Buxor va Navmichkat tarzida vujudga kelib, keyinchalik qo£shilib ketgan. Akademik A.Muhammadjonovning izohlashicha, *Farab* - sug£dcha "sohilbo£yi" va *diz* - "qal'a" bo^ib, Farabdiz - "suv yoqasidagi qal'a" ma'nosini anglatadi. Bu xulosa Abu Bakr Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asaridagi fikrlarga to^iq mos keladi. "Buxoro" toponimining ma'nosi xususida ham

xilma-xil fikrlar mavjud. V.Bartold talqiniga ko£ra, qadimgi hind tili (sanskritcha) *Vihara* - “monastir, ibodatxona” yoki budda dini rohiblari yig£iladigan joy ma’nosidan kelib chiqqan. A.Muhammadjonov talqiniga ko^a esa, u sug£dcha *Bug‘* - “tangri”, *oro* - “jamol”, ya’ni “Tangri jamoli” ma’nosini bildiradi. Shuningdek, “G^yos ul-lug£ot”da Buxoro atamasi “ilm, ilm makoni” deb izohlanadi. Tojik tilining izohli lug£ati “Farhang”da esa suv zarrasi, issiq ta’sirida bug£lanadigan daryo, dengiz suvi (hovur-par) tarzida talqin etilgan.

Xorijliklar va arablar tomonidan Buxoroga Madinat as-Sufriya (Mis qorg£on - uning mustahkam mudofaa tizimi uchun), Madinat at-tujjor (Savdogarlar shahri - Buyuk ipak yo£lidagi strategik o£rni uchun) va Foxira (Faxrli shahar) kabi sifatlar berilgan. Keyinchalik islom ilmining yuksak rivojlanishi sababli Buxoroyi sharif hamda Imom Abu Hafsi Kabir Buxoriy xizmatlari tufayli Qubbat ul-islom (“islom dinining gumbazi”) faxriy unvonlariga ega bo£lgan.

Samarqand va Zarafshon toponimlarining lisoniy evolyutsiyasi

Samarqand - qadimgi dunyoning eng ko%na markazlaridan biridir. Antik davr manbalarida Marakanda nomi bilan tilga olingan. Yozma yodgorliklarda shahar nomi Samarian, Saramanka, Sarakanna, Sanmangan, Semizkent kabi turli fonetik variantlarda uchraydi. To£plangan materiallar tahlili shuni ko£rsatadiki, joy nomining tarkibidagi sug£d tiliga mansub *Kent/Kand* komponenti “shahar”, “qishloq” yoki “istehkom” degan ma’noni anglatadi. Birinchi komponent - *Samar* so£zining etimologiyasi hozirgi kunga kelib ham mutaxassislar o^tasida to^iq yagona asosga ega emas (ba’zi qarashlarda u atoqli ot yoki tarixiy shaxs ismi deb hisoblanadi). Biroq Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshg£ariy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug£ olimlar shahar nomini turkiy *semiz* va *kent,* ya’ni “yog£li”, “boy shahar” so£zlarining o£zaro birikishi va fonetik transformatsiyasidan olingan deb hisoblaganlar.

Qizig£i shundaki, Samarqand komponentli toponimlar juda keng arealda tarqalgan bo£lib, nafaqat O£zbekistonda, balki qo£shni o^kalarda ham uchraydi. Masalan, Afg£onistonda, Qozog£istonda (bu yerda Temirtau shahri ilgari Samarqand deb atalgan) mavjud bo^gan. Shuningdek, respublikamiz mikrotoponimiyasida Bog£i Samarqand, Samarqand Makay, Samarqandovul, Samarqandariq kabi o£nlab kichik geografik obyektlar nomlari shakllangan bo£lib, ular ushoq onomastik tizimni tashkil etadi.

Zarafshon daryosi antik tarixchilar asarlarida Politimet (“juda hurmatli, serfayz”) deb tilga olingan bo^sa, Narshaxiyda Rudi Mosaf, o£rta asrlarda esa Ko£hak, Vodiy us- Sug£d, Nahr ul-Buxoro, Haromkom nomlari bilan yuritilgan. XVII-XVIII asrlardan e’tiboran u forscha *zar* (oltin) va *afshon* (sochiluvchi, tarqaluvchi) so£zlaridan tarkib topgan Zarafshon — “oltin keltiruvchi, oltin sochuvchi daryo” nomi bilan barqarorlashdi. Chunki daryoning quyi oqimida qumdan oltin zarrachalarini yuvib olish ishlari qadimdan mavjud bo^gan. Shuningdek, Mug£ tog£idan topilgan qadimgi sug£diy hujjatlaridagi Zarup (“Tilla suv”) joy nomi ham daryo nomining tub ildizlari chuqur sug£diy-eroniy asosga ega ekanligini ko^satadi.

Farg£ona va Andijon oykonomlarining strukturaviy-semantik tahlili

Farg£ona xoronimi qadimgi xitoy manbalarida Dayyuan (yoki Davan) atamasi bilan yuritilgan. Taniqli xitoyshunos olim A.Xo£jayevning izohlashicha, xitoylar mahalliy xalq tilidagi sug£diycha Parkona (yoki Parkana) atamasini o£z tillariga semantik jihatdan tarjima qilib Dayyuan *(Day* — buyuk, *yuan* — atrofi balandlik va tog£lar bilan o^algan kosasimon joy) deb atashgan. Demak, har ikki atama ham mohiyatan “tog£lar bilan o^algan tekislik”, “tog£lar orasidagi chuqurlik, pastlik, vodiy” degan bitta geografik ma’noni ifodalaydi.

M.S.Andreyev va H.Hasanovlarning Pomir tillari (xususan, rushon shevasi) leksik materiallariga tayangan xulosalariga ko^a, *parkana* - “har tarafi tog£, bir yog£igina ochiq bo^gan vodiy” demakdir. Buni Zahiriddin Muhammad Boburning “Girdo-girdi tog£ voqe’ bo£lubtur. G£arbiy tarafidakim... tog£ yo£qtur” degan mashhur geografik tasviri ham to^iq tasdiqlaydi. Akademik A.Muhammadjonov ushbu toponimni ikki bo£g£inga ajratadi: *far/par* - “tushmoq, pastlamoq” va *g‘on/gan/kan* - “daryo, havza, vodiy”. Demak, ilmiy etimologiyaga ko^a, Farg£onani “tog£ tizmalari oralig£idagi unumdor joy” yoki “tog£lar bilan qurshalgan vodiy” sifatida izohlash eng to£g£ri ilmiy yondashuvdir. O^mishda Ishoqxon Ibratning uni xalqona usulda “har xona” so£zi bilan bog£lashi esa ilmiy asosga ega bo^magan sun’iy talqindir.

Andijon toponimi tarixiy manbalarda Andukan, Andugan, Andigan shakllarida uchraydi. Uning kelib chiqishi to£g£risida ilm-fanda bir nechta qarashlar mavjud. V.P.Nalivkin va Ibrat talqiniga ko^a, o£zbeklarning qadimgi *andi* qabilasi nomiga forschaning *-gon* (ko£plik yoki makon ma’nosini ifodalovchi) qo£shimchasi qo£shilishidan hosil bo^gan *(Andigon > Andijon).* O.Xojimatov esa joy nomining

birinchi qismini qadimgi turkiy tildagi *angar/ungir* (jarlik, chuqurlik) so£zi bilan bog£lab, “Chuqurlikda joylashgan shahar” deb baholaydi. Akademik

A.Muhammadjonov turkiy-mo£g£ulcha *andi/anda* (ahdlashgan do£st, yaqin birodar) so£zini *kon/gon/jon* (suv, soy) morfemasi bilan bog£lab, “Soy bo£yida joylashgan ahdli do£stlar shahri” deb izohlaydi. S.Jalilov esa shahar nomini 92 o£zbek urug^ning biri bo£lgan *adoq* yoki *adg‘ish* qabilasi nomiga bog£laydi. Bizningcha ham ushbu fikr haqiqatga yaqinroqdir. Chunki hududdan V-VIII asrlarga oid turk tamg£ali arxeologik idishlar topilgan. Ikkinchi qism esa sug£diycha *kan* (shahar) bo^ib, *Adkan > Andukan > Andijon* shakliga kelgan va “Adoq (Ad) qabilasi shahri” degan ma’noni anglatadi.

Amudaryo gidronimi va Qashqar ko‘chma toponimi

Amudaryo - Markaziy Osiyodagi eng yirik daryo bo^ib, tarixan Oksus, Jayxun, O£kuz, Vaxsh nomlari bilan atalgan. H.Hasanov va boshqa mutaxassislar daryoning hozirgi nomini uning o^ta oqimi bo£yida joylashgan o^ta asrlardagi yirik kechik va shahar - Amul (Omuyya, keyinchalik Chorjo£y) nomi bilan bog£laydilar. Vaqt o^ishi bilan shahar nomi daryoga o£tib, keyinchalik butun daryo oqimi shu nom bilan atalgan. Amudaryo tumanining markazi bo^gan Mang£it oykonomi esa toza etnotoponim bo^ib, u XII asrdan ma’lum bo^gan turkiy-mo£g£ul qabilasi — mang£itlar (mo£g£ulcha *myangat* — mingtalik, ming kishilik qo£shin yerlari) nomi bilan uzviy bog£liqdir.

Qashqar toponimi va u bilan bog£liq aholi punktlari (masalan, Andijon va Farg£onadagi uyg% qishloqlari, Marg£ilondagi mahalla, Toshkentdagi Qashqar darvozasi) ko^hma onomastik birliklardir. Qashqar darvozasi Toshkent shahri Shayxontohur dahasining sharqiy tomonida joylashgan. Darvoza nomi XIX asrda Qashqar shahridan bir miqdor aholining Toshkentga ko£chib kelib o£rnashib qolganligi bilan bog£liq. XIX asrning 40-yillarida shaharning yangi tashkil topgan mazkur qismida, Qashqardan chekinib qaytayotgan qo£qonlik Muhammadalixon (1822-1842) qo£shini bilan kelgan qashqarliklar yashardilar. Bu yerlar to 1966-yilgi zilzilagacha Qashqar mahalla deb atalardi.

Umuman, tarix mobaynida bu darvoza nomi o£zgarib kelgan. Muhammad Solih keltirgan ro£yxatlarda XV asrda Turk, XIX asrda Xitoy va Oqqo^on nomlari ma’lum bo£lgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab mazkur darvozaning nomi manbalarda Qashqar darvoza shaklida uchraydi. Muhammad Solihning yozishicha, Turklar darvozasining nomi turk qabilasi nomidan olingan bo^ib, XIX asr boshlarida bu yerda

Turk mahallasi ham bor edi. Darvozaning Xitoy degan nomi haqida aniq yozma ma’lumotlar hozircha uchramagan bo^sa-da, uni Buyuk ipak yo^ining bir yo£nalishi, aniqrog£i, shimoliy tarmog£i

Toshkent shahri orqali o£tganligi va ushbu darvozadan Sharqiy Turkiston hamda Xitoy tomon yo£lga chiqilganligi bilan izohlash o£rinlidir.

Xulosa (conclusion)

"Xo£jand qal'asi" asari onomastikasi ustida olib borilgan leksik-etimologik va semantik tadqiqotlar quyidagi umumiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

1. Asar tilidagi toponimlar tizimi o£zbek xalqining etnogenezi, hududiy joylashuvi, tarixiy geografiyasi hamda tildagi substrat qatlamlarni aniqlashda birlamchi lisoniy manba bo£lib xizmat qiladi.

2. Mintaqa toponimiyasida tarixiy-geografik relyef (kosasimon unumdor vodiylar, chuqurliklar, daryo bo£ylari va istehkomlar) joy nomlari negizini hosil qiluvchi va nom berishga asos bo^uvchi yetakchi omillardan biridir (buni Farg£ona va Andijon nomlari tahlili yaqqol ko£rsatdi).

3. Joy nomlarining etimologik qatlamlarida islomgacha bo^gan qadimgi davr elementlari (sug£d, sanskrit, qadimgi eroniy asoslar) va islom dini madaniyati bilan bog£liq semantik konnotatsiyalar (Bag£dod, Buxoroyi Sharif) o£zaro lisoniy sintezga kirishgan.

4. Tarixiy davrlardagi etnik migratsiyalar onomastik manzarani sezilarli darajada boyitib, yangi ko^hma toponimlar (Qashqar darvozasi, Qashqar mahallasi) hamda urug£-qabila nomlariga asoslangan sof etnotoponimlarning (Mang£it, Turk mahallasi, Andijon) barqarorlashuviga zamin yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abu Bakr Muhammad Narshaxiy. Buxoro tarixi. - Toshkent: Fan, 1966.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. - Toshkent: Sharq, 2002.
3. Muhammadjonov A. Farg'ona nomining ma'nosiga doir // Ilmiy maqolalar to'plami. - Toshkent, 1972.
4. Hasanov H. Geografik nomlar siri. - Toshkent: O'zbekiston, 1985.
5. Livshits V.A. Sogdiyskiye dokumentbi s gorы Mug. Vbip. II. - Moskva: Vostochnaya literatura, 1962.
6. Ishoqxon Ibrat. Tarixi Farg'ona. - Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
7. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi. - Toshkent: O'zbekiston, 1978.